

## O‘ZBEK BADIY MATNLARINING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA EKZOTIZMLARNING BERILISHI

**Xoliqova Zahro Arol qizi**

Qarshi davlat universiteti magistranti

[Zakhrokhlikova@gmail.com](mailto:Zakhrokhlikova@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqolada ekzotizm tushunchasi izohlangan va ekzotizmlar guruhlangan, ularga misollar topilgan. Ekzotizmlar kimlar tomonidan o‘rganilganligi, kimlar o‘z tadqiqotlarida ularni tahlil qilgani sanab o‘tilgan. Maqolada qiyosiy, tavsifiy metodlardan foydalanilgan. Tarjima jarayonida vujudga keladigan muammolar sanab o‘tilgan va ularga yechimlar misollar orqali berilgan. Maqola oxirida xulosa berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ekzotizm, milliy urf-odatlar, lug‘at boyligi, tarjima jarayoni, kolorit, izoh

## TRANSLATION OF EXOTICISMS IN THE TRANSLATION OF UZBEK ARTISTIC TEXTS INTO ENGLISH

### ABSTRACT

In the article, the concept of exoticism was explained and exoticism was grouped, examples were found out. It is listed who studied exoticism, who analyzed their studies. Comparative, descriptive method were used in the article. The problems that arise in the translation process are listed the solution to them is given by examples. At the end of the article, the conclusion is given.

**Key words:** Exoticism, national customs and traditions, translating process, kolorit

### KIRISH

Ekzotizm ma’lim bir xalqning, mamlakatning milliy, madaniy hayotini o‘zida aks ettiruvchi va tarjimada ekvivalenti mavjud bo‘lmagan so‘zdir. Masalan, o‘zbek tilidagi ekzotizmlar: adras, atlas, Navro‘z, sumalak, tandir, palov... Yoki boshqa tillardagi kiyim-kechak nomlari: kemano, burqa, salla, chodra, pul birliklari: so‘m, rubl, dollar, siyosiy tashkilot muassasa nomlari: reyxstag, senat, kortes, shamollar nomlari: tornado, garmsel musiqa asboblari nomlari: rubob, fleyta, agogo...

Ekzotizmlarning o‘ziga xos-xususiyatlari:

- muayyan, mamlakat, millatga bevosita bog‘liq;
- hech qanday sinonimi yo‘q;

- mahalliy rangni, koloritni ko'rsatadi

Tilshunoslikda ekzotizmlar, ekzotik leksika terminlari ostida boshqa xalqlar hayotini tasvirlashga, o'zga xalq va madaniyatga daxldor bo'lgan voqeliklarni ifodalashga xizmat qiluvchi so'zlarning qo'llanishi A.E.Supruning 1958-yilda e'lon qilgan. "Ekzoticheskaya leksika" nomli maqolasida ilmiy asoslab berildi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ekzotizm so'zi yunoncha exhotikos "begona, g'ayrioddiy, tashqarida" degan ma'nolarni anglatadi. Bu atama dastlab 1992-yilda G.L.Zelinin tomonidan batafsil tavsiflangan, ekzotizm so'zi adabiy tanqid ma'nosida qo'llanilgan. Tilshunoslikda esa 1937-yil L.A.Bulaxovskiy tomonidan ishlatilgan. Kavkaz tillaridagi so'zlarni tavsiflovchi asarlarida "ekzotik lug'at" atamasini ishlatgan.<sup>1</sup> Ammo ekzotizm tushunchasiga izoh berilmagan. Keyinchalik B.N. Pavlov ekzotizmni "badiiy matnlarda rus bo'lmagan har qanday xalqning ma'naviy hayoti va turmush tarzining milliy xususiyatlarini ifodalash vositasi sifatida qo'llaniladigan begona so'zlar" deb ta'rif beradi. Ekzotizm atamasi A.A.Bragina tomonidan mintaqaviy jihatdan lug'atni o'rganishga bag'ishlangan monografiyasida faol qo'llaniladi. U ma'lum bir mamlakat, ma'lum bir xalqning hayoti, madaniyati bilan aniq bog'liq bo'lib, matnga milliy, mahalliy rang beradigan, o'zlashtirilgan, ekvivalenti bo'lmagan xorijiy so'zlarni ekzotizm deb ataydi<sup>2</sup>.

### NATIJALAR

Har bir xalqning madaniy hayotiga oid bo'lgan, boshqa millatda mavjud bo'lmagan leksik qatlami mavjud. Bu so'zlar xalqlarning hayoti, turmush tarzi va urf-odatlariga bog'liq bo'ladi. Masalan: do'ppi, chopon, o'choq, tandir, adras, atlas, sumalak, shinni, baxmal kabilar.

O'zbek milliy-madaniy hayotiga oid ekzotizmlarning inglizcha tarjimada berilishi:

*Chilmahram tog'ining etaklaridagi ko'kalamzorlarda ham yuzlab chodirlar va o'tovlar paydo bo'ldi.* (Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar) - *In the greenery on the slopes of mount Chilmahram, too, hundreds of utovs and tents.* Tarjimon dasturlarda o'tovni grass deb tarjima qilingan. Ammo bu xato, chunki o't, maysa bilan o'tovni farqi bor.

<sup>1</sup> Ванина, В. В. Экзотизмы немецкого происхождения в русском языке XX века Текст.: автореф. дис. . канд. филол. наук / В. В. Ванина. Барнаул, 2001. - 19 с

<sup>2</sup> Аникина, Л. В. Использование этнографизмов в произведениях Ю. Рытхэу Текст. / Л.В. Аникина // Русский язык в школе. 1982. - № 3. - С. 92.

*Fotima yenglariga chiroyli qizil kashtalar tikilgan, ukraincha oq shoyi kofta, qora yubka kiygan edi.* (P.Tursun. O‘qituvchi.)- *Fotima had a beautiful red kashtas on her sleeves, Ukrainian wore a white silk blouse, black skirt.* Tarjimon dasturlarda kashta so‘zi embroidery deb tarjima qilingan, embroidery bu bezalغان degani, ammo bezalغان bilan kashta so‘zini farqi bor. Bezashda ip bilan emas boshqa narsa bilan ham bezalishi mumkin

### **MUHOKAMA**

O‘quvchi nafaqat milliy adabiyot asarlaridan balki, xorijiy adabiyotlardan tarjimalar bilan ham shug‘ullanadi. Faqat u tarjimalar orqali boshqa xalqlar adabiyoti haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Badiiy tarjima – adabiy-badiiy asar mazmunini boshqa til orqali tarjima qilish. Tarjimon tillarni bilishi, qiyosiy grammatika va uslub masalalarini tushunishi kerak.

### **XULOSA**

Tarjima jarayonida bir necha muammolar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, ekzotizmlar qanday tarjima qilinadi? Qanday tarjima qilinsa so‘zdagi milliy kolorit yo‘qolmaydi? Bu kabi ko‘plab muammolarga yechim topish, ularga e‘tibor berib tarjima qilish asarning haqiqiy mazmunini ochib beradi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. Аникина, Л. В. Использование этнографизмов в произведениях Ю. Рытхэу Текст. / Л.В. Аникина // Русский язык в школе.С.( 92).
- 2.Ванина, В. (2001). Экзотизмы немецкого происхождения в русском языке XX века Текст.: автореф. дис. . канд. филол. наук .(19 с).
3. Кальвова, О. И.(1986) Функционирование экзотизмов в русских текстах Текст.: автореф. дис. . канд. филол. наук / О. И. Кальвова. — Куйбышев: Куйбышевский государственный университет. (19 с).